

Loyixa-smeta xujjalarni tayyorlash ishlarni bajarish uchun

405-51 -sonli Sh A R T N O M A

Farg'ona sh.

28, 11

2022 yil

Bundan buyon "Buyurtmachi" deb ataluvchi "Farg'ona mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati" DUK nomidan Nizom asosida ish yurituvchi direktor Sh.Po'latov birinchi tomondan va ikkinchi tomondan "Bajaruvchi" deb ataluvchi "CONSTSERVIS" M.CH.J direktori K.Tillaboev orqali Farg'ona viloyati Farg'ona (shahar) kesimida "2022-2023 yillarda mahallalar infratuzilmasini rivojlantirish dasturi" doirasidagi PQ-408-tonli qaroriga asosan shakllangan tadbirlarni moliyalashtirish bo'yicha tavsiyaviy manzilli ro'yxatga asosan quyidagi shartnomani tuzdilar: Lot№ 22110012181079

1. Shartnoma predmeti

1.1. "Buyurtmachi" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 25 oktiyabrdagi "2022-2023 yillarda mahallalar infratuzilmasini rivojlantirish dasturi" doirasidagi PQ-408-tonli qaroriga asosan Farg'ona shaxar Soxibqiron Temur MFY sini "2022-2023 yillarda mahallalar infratuzilmasini rivojlantirish dasturi" doirasidagi PQ-408-tonli qaroriga asosan ichki yo'llarni joriy ta'mirlash ishchi loyixa-smetasi va ekspertizadan o'tkazish ishlarni topshiradi, "Bajaruvchi" esa o'z zimmasiga oladi.

2. Shartnoma bahosi va to'lovlar qoidalari

2.1. Ishlarni amalgा oshirishning shartnoma baxosi QQS bilan 1 040 000 (bir million qirq ming so'm) so'mni tashkil qiladi.

2.2. "Buyurtmachi" 10 (o'n) bank kuni ichida shartnoma bahosining 30% miqdorida avans to'lovini amalgा oshiradi.

2.3. Ishlar qiymatini ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari sabab bo'lгanda yoki ishlarni hajmi "Buyurtmachi" tomonidan o'zgartirilganda shartnoma bahosi o'zgartirilishi mumkin.

3. Tomonlar majburiyatları

3.1. "Bajaruvchi" ishlarni shartnoma gазnachilik boshkarmasidan ruyxatdan utgandan sung 10 kun muddatda bajarishni o'z zimmasiga oladi.

3.2. "Bajaruvchi" loyiha smeta hujjatlari qayta hisoblangandan so'ng loyiha hujjatlarini ekspertizadan o'tkazishda ishtiroy etishni o'z zimmasiga oladi.

3.3. "Buyurtmachi" ishlarni amalgा oshirish uchun zarur bo'lgan birlamchi ma'lumotlar va materiallarni "Bajaruvchi"ning so'rovi asosida taqdim qilishi shart.

3.4. "Buyurtmachi" shartnomada ko'zda tutilgan shartlar va tartiblar asosida to'lovni amalgा oshirish, ishlarning shartnomada ko'rsatilgan hajm va shartlarga muvofiq bajarilishi "Buyurtmachi" tomonidan bajarilishi zarur bo'lgan ishlarni bajarish, bajarilgan ishlardan shartnomada ko'zda tutilgan maqsadlarda foydalanishni o'z zimmasiga oladi.

"Buyurtmachi" tomonidan avans to'lov o'z vaqtida o'tqazilmagan holda yoki ishni amalgा oshirish uchun zarur bo'lgan birlamchi ma'lumotlar va materiallarni "Bajaruvchi"ning talabiga asosan taqdim etmaganida ishlarni boshlash va tugallash muddati ham avans to'lovi va ma'lumotlar berilishi kechiktirilgan vaqtga qadar uzaytiriladi.

4. Ishlarni topshirish va qabul qilish tartibi

4.1. Ishlar tugagandan so'ng "Bajaruvchi" "Buyurtmachi"ga ishlarni topshirish va qabul qilish dalolatnomasi bilan topshiradi.

4.2. "Buyurtmachi" ishlarni topshirish va qabul qilish dalolatnomasiini olgandan so'ng 10 kun mobaynida ishlarni qabul qilish va "Bajaruvchi"ga imzolangan topshirish va qabul qilish dalolatnomasini yoki ishlarni qabul qilmaslikning asoslangan rad javobini yuborishni o'z zimmasiga oladi.

Agar "Buyurtmachi" ishlarni qabul qilgan kundan boshlab 10 kun muddat ichida "Bajaruvchi"ga kamchiliklar ko'rsatilgan ishlarni qabul qilmaslik rad javobini yubormasa, ishlarni qabul qilingan hisoblanadi va bunday holatda "Buyurtmachi" ishlarni topshirish-qabul qilish dalolatnomasini imzolab, bir nusxasini "Bajaruvchi"ga qaytarishi shart.

4.3. "Buyurtmachi" ishlarni qabul qilmasligining asosli rad javobini bergen holda zarur bo'lgan qo'shimcha ishlarning ro'yxati va ularning bajarilish muddatlarini ko'rsatgan holda, ikki tomonlama dalolatnomasi tuziladi.

4.4. Agar ishlarni bajarilish jarayonida uni davom ettirish maqsadga muvofiq emasligi aniqlansa, tomonlar 5 kun muddat ichida uni to'xtatish to'g'risida bir-birini xabardor qilishi va 15 kun ichida ishlarni davom ettirish maqsadga muvofiq yoki muvofiq emasligi to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishi shart. Ishlarning to'xtatilishi tomonlar uchun O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida ko'zda tutilgan oqibatlar va javobgarlikka olib keladi.

4.5. Tomonlardan biri mazkur shartnomada ko'zda tutilgan ishlarni to'xtatish to'g'risida yozma xabar bergen vaqt o'zaro hisob-kitob qilish vaqt hisoblanadi.

4.6. Lozim topilgan hollarda tomonlar xolis ekspertlarga Loyiha bo'yicha xulosa uchun murojaat qilishi yoki qabul komissiyasi tashkil qilishi mumkin.

5. Konfidensial ma'lumotlarni himoyalash

5.1. Ishlar bajarilishi davrida "Bajaruvchi" o'zi konfidensial hisoblanadigan ma'lumotlar ishlarni chiqqan yoki ularni "Buyurtmachi"dan olgan hollarda ularni himoyalash, oshkor bo'lishini oldini olish maqsadida tegishli tadbir va choralar ko'radi.

6. Qo'shimcha shartlar

6.1. "Bajaruvchi" ishlarni muddatidan oldin bajargan holda, "Buyurtmachi" uni mazkur shartnomaning 4-moddasiga asosan qabul qiladi va to'la to'lovnini amalga oshiradi.

6.2. Shartnomaga tomonlar roziligi asosida, yozma ravishda o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

6.3. "Bajaruvchi" mazkur shartnomada ko'rsatilgan ishlarni bajarish vaqtida o'z imkoniyatlardan kelib chiqib, "Buyurtmachi"ni xabardor qilmagan holda uchinchi shaxslarni, jumladan yuridik va jismoniy shaxslarni mustaqil ravishda jalb qilish huquqiga ega.

Mazkur shartnomaning shartlari shartnoma predmeti bo'yicha taraflarning shartnoma tuzishidan oldin vujudga kelgan munosabatlariga va "Bajaruvchi"ning ob'ekt bo'yicha bajargan ishlariiga nisbatan qo'llaniladi.

6.4. Mazkur shartnomaga amal qilish davomida yuzaga keladigan tortishuvlar, kelishmovchiliklar, nizolar tomonidan o'zaro muzokara yo'li bilan hal etiladi.

Kelishuvga kelinmagan taqdirda tortishuvlar, kelishmovchiliklar, nizolar Iqtisodiy sudda e'tiroz tartibiga rivoja qilgan holda ko'rib chiqiladi. E'tirozlar yozma ravishda taqdim qilinishi kerak va ularni ko'rib chiqish muddati e'tiroz bildirilgan tomon organidan keyin 1 (bir) oy muddatni tashkil etadi. Mazkur shartnomaga bo'yicha nizo kelib chiqqan xollarda belgilangan tartibda hal qilinadi.

6.5. "Buyurtmachi" tomonidan dastlabki to'lov va "Bajaruvchi" tomonidan ishlar topshirilganda shartlashilgan xaqi kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,2 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi shartnoma bahosining 30 (o'ttiz) foizidan oshmasligi lozim.

Penya to'lash "Buyurtmachi"ni to'loving kechikishi yoki xizmatlar, ishlarning asossiz qabul qilinmaganligi tufayli yetkazilgan zararlarni qopplashdan ozod qilmaydi.

6.6 Mazkur shartnomaga bilan nazarda tutilmagan taraflarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga, xususan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga, «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy – huquqiy bazasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuniga muvofiq belgilanadi.

6.7. Shartnomalar taraflar tomonidan imzolanganidan soʻng Viloyat Gʻaznachilik Boshqarmasi (boʻlimida belgilangan tartibda roʻyxatdan oʻtganidan keyin qonuniy kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabrgacha amal qiladi.

7. Tomonlarning manzili va hisob raqamlari

«BUYURTMACHI»

"Farg'ona mintakaviy yullarga buyurtmachi xizmati" davlat unitar korxonasi

Manzil: Farg'ona sh. Aeroport ko'chasi 1-uy
ShHR: 30202186030409704520998073

O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi
G'aznachiligi

x/r: 23 402 000 300 100 001 010

MEQ-00014-FINN: 201 122 919

Bank: XKKM MB Toshkent shaxri Bosh
bosqarmasi

Direktor

Sh.Po'latov

Xuquqshunos



«BAJARUVCHI»

“CONSTSERVIS” M.CH.J

Manzil: Farg'ona v. Fargona sh. Iftihor MFY
Mustaqillik shoh ko'chasi 46-uy 7- honardon A

Bank: Savdogar bank” Farg‘ona filiali

x/r: 20 20 8000 8055 3732 8001

MFO: 00500 INN: 309636474



Direktor

K.Tillaboev